# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: **Info@xs.uz** ● 2023-yil 28-dekabr, № 278 (8621) **Payshanba** Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# MAMLAKATIMIZDA UMUMIY QUVVATI 2,4 GIGAVATTLIK “YASHIL” ELEKTR STANSIYALARI ISHGA TUSHIRILDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-dekabr kuni mamlakatimizning oltita hududida 5 ta quyosh, 1 ta shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish va tarmoqqa ulashga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi.**






Tadbirda ushbu muhim investitsiya loyihalarining hamkorlari bo‘lgan “Masdar” kompaniyasi bosh ijrochi direktori Muhammad al Ramahiy, “China Energy Engineering Corporation” kompaniyasi vitse-prezidenti Vu Yun, “China Energy International Group” kompaniyasi boshqaruvi raisi Lyu Szesyan, “China Gezhouba Group” kompaniyasi boshqaruvi raisi Lin Syaodan, “SEPCO III”, “Dongfang Electric Corporation” va boshqa kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, O‘zbekistonda energetika tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda tarmoqda xususiy sektor va yetakchi xorijiy kompaniyalar faoliyatiga qulay sharoitlar yaratildi. Ular ishtirokida O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika salohiyatini kengaytirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Xususan, ilk bor 100 foiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan, davlat-xususiy sheriklik asosida Karmana va Nurobod tumanlarida umumiy quvvati 200 megavattlik quyosh stansiyalari barpo etilib, o‘tgan davrda ular 1 milliard kilovatt-soat “yashil” elektr energiyasini ishlab chiqardi.

Dunyoning qirqdan ortiq davlatida “yashil” energetika sohasiga doir turli tashabbuslarda ishtirok etib kelayotgan Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi mamlakatimizda ham to‘rtta yirik loyihani yakunladi.

Ulardan biri Jizzax viloyatidagi quvvati 220 megavattli quyosh fotoelektr stansiyasidir. Ushbu 150 million dollarlik loyiha uchun G‘allaorol tumanidan 560 gektardan ortiq yer maydoni ajratilib, 460 ming dona quyosh paneli o‘rnatildi.

Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanida ham xuddi shu quvvatdagi quyosh fotoelektr stansiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi shu yo‘nalishdagi elektr stansiyasining quvvati nisbatan balandroq — qariyb 460 megavatt bo‘ldi. Bu manzildagi 630 gektardan ortiq maydonga 900 ming donaga yaqin quyosh paneli va zarur uskunalar joylashtirildi.

Barpo etish loyihasi yakunlangan ushbu uchta zamonaviy fotoelektr stansiyasining umumiy quvvati 900 megavattni tashkil qilmoqda.

Shuningdek, mazkur kompaniya tomonidan Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 500 megavattlik shamol elektr stansiyasining birinchi bosqichi qurib bitkazildi.

Xitoyning nufuzli “China Gezhouba Group” kompaniyasi ham dunyodagi saksondan ortiq davlatlardagi katta-kichik loyihalarda faol ishtirok etadi.

Mazkur kompaniya ham Buxoro va Qashqadaryoda har biri 350 million dollardan bo‘lgan, umumiy quvvati 1000 megavattlik quyosh fotoelektr stansiyalarining birinchi bosqichi qurilishini yakunladi.

Yuqorida keltirilgan oltita stansiyaning har biri yirik loyiha sanaladi. Aslida uni ishga tushirish ko‘p vaqt talab qiladi. Lekin mamlakatimizda bu sohaga qaratilgan alohida e’tibor bugun o‘z natijasini berdi. Loyihalar doirasidagi qurilish ishlari juda qisqa fursatda — 9 oyda bitkazilgani diqqatga sazovor.

Marosimda davlatimiz rahbari xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ushbu yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish va tarmoqqa ulashga start berdi.

Bu loyihalarga katta amaliy hissa qo‘shgan investorlar, muhandis va quruvchilarga alohida minnatdorlik bildirildi.

Jami qiymati 2 milliard dollarlik ushbu stansiyalar to‘liq ishga tushsa, ikki millionta xonadon elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlanadi, 2 milliard kub metr tabiiy gazni tejash hamda sanoat va xizmatlar sohasida 4 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Prezidentimiz o‘z nutqida bu sohadagi kelgusi rejalarga to‘xtalib o‘tdi.

— Biz bugun amalga oshirayotgan ulkan ishlar energetika tarmog‘idagi islohotlarning navbatdagi qadamidir. Bu chora-tadbirlarni tizimli davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tamiz. Hozir yurtimizda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyasini qurish loyihalari ustida ishlayapmiz. Xorijiy kompaniyalar bilan sermahsul hamkorligimizni tobora kengaytirib boramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Umuman, 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish rejalashtirilgan. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, atmosferaga zararli tashlamalarni 34 million tonnaga qisqartirishga xizmat qiladi.

**O‘zA.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “YASHIL” ENERGETIKA SOHASIDAGI YIRIK QO‘SHMA LOYIHALARNI ISHGA TUSHIRISHGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Hurmatli tantanali marosim ishtirokchilari!

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz, azizlarni shunday qutlug‘ kunlarda, Yangi yil arafasida Yangi O‘zbekiston hayotidagi ulkan tarixiy voqea — “yashil” energetika sohasidagi yirik qo‘shma loyihalarni ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ko‘rib turganimdan benihoya baxtiyorman.

Yaxshi xabardorsiz, biz bundan besh yil muqaddam qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish bo‘yicha oldimizga juda katta maqsad va vazifalarni qo‘yib, amaliy ishlarni boshlagan edik.

Biz sohani isloh etishni, birinchi galda, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yetakchi ekspertlari bilan maslahat qilishdan boshladik.

Bir qator qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish va yangi qarorlarni qabul qilish orqali energetika tarmog‘ida bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam qonunchilik bazasini yaratdik. Sohada ma’muriy-buyruqbozlik mexanizmlari va monopoliyadan voz kechib, zamonaviy boshqariladigan ochiq va shaffof tizimga o‘tdik. Xususiy sektor va xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratdik.

Energetika vazirligi, shuningdek, har bir alohida yo‘nalish bo‘yicha mas’ul va javobgar bo‘lgan yangi tashkilotlar tuzildi.

Xalqaro maslahatchi va konsalting kompaniyalarini yollab, ikki yil davomida mamlakatimizda quyosh, shamol va gidroenergetikani rivojlantirish imkoniyatlarini puxta o‘rgandik hamda eng samarali hududlar xaritasini tuzdik.

Natijada chet ellik investorlarning yurtimizga bo‘lgan qiziqishi va ishonchi keskin oshdi.

Ilk bor 100 foiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan Karmana va Nurobod tumanlarida 2 ta quyosh stansiyasi ishga tushirilib, shu kunga qadar 1 milliard kilovatt-soat “yashil” elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Bugun esa mamlakatimiz tarixida yana bir yorqin sahifa ochadigan muhim hodisa — umumiy quvvati ikki ming to‘rt yuz megavatt bo‘lgan oltita yirik quyosh hamda shamol stansiyalari tarmoqqa ulanmoqda. Jumladan, O‘zbekistonning yaqin do‘sti va keng qamrovli hamkori bo‘lgan Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi tomonidan Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida uchta quyosh elektr stansiyasining birinchi bosqichi barpo etildi.

Bundan tashqari, ushbu nufuzli kompaniya tomonidan Tomdi tumanida barpo etilayotgan zamonaviy shamol stansiyasining 100 megavatti ishga tushirilmoqda. “Gezhouba” kompaniyasi bilan esa Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi quyosh stansiyalarining dastlabki 400 megavattli generatsiyasi boshlanadi.

Eng e’tiborli jihat — ushbu barcha loyihalar davlat-xususiy sheriklik asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirildi.

Umumiy qiymati 2 milliard dollarlik bu loyihalar hisobidan yiliga 6 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqarilib, ikki milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi. 2 million xonadon uzluksiz va kafolatli elektr energiyasi bilan ta’minlanadi. Sanoat va xizmatlar sohasida 4 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratiladi.

Bizning strategik sherigimiz va yirik savdo hamkorimiz bo‘lgan Xitoy ishtirokidagi loyihalar ilgari tajribada kuzatilmagan juda qisqa muddatda — 9 oy ichida ishga tushirilganini alohida mamnuniyat bilan ta’kidlamoqchiman.

Jahonda ishlab chiqarish zanjiri va logistika bilan bog‘liq muammolar qanchalik murakkab ekaniga qaramasdan, biz bu borada “Goldwind”, “Sungrow”, “Jolywood”, “Longi” kabi kompaniyalar bilan samarali ish olib bordik.

Fursatdan foydalanib, bugungi tadbirimizda hozir bo‘lib turgan “Masdar” kompaniyasi rahbari Muhammad al Ramahiy janoblariga, “China Energy” vitse-prezidenti Vu Yun janoblariga, “Gezhouba” kompaniyasi raisi Lin Syaodan janoblariga, bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etgan “Dongfang”, “Smek”, “SEPCO” va boshqa kompaniyalar rahbarlariga, nufuzli xalqaro bank-moliya institutlariga, mazkur loyihalarni amalga oshirishga munosib hissa qo‘shgan barcha xorijiy va mahalliy mutaxassislarga, quruvchi-muhandislarga butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli tadbir qatnashchilari!

Biz nima uchun “yashil” energetika rivojiga bu qadar katta rag‘bat va e’tibor qaratyapmiz? Chunki biz, **eng avvalo**, 2030-yilga borib sanoat hajmini ikki karra oshirishni, metallurgiya, neft-kimyo va mashinasozlik kabi sohalarni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko‘tarishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz. Umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni ko‘zlayapmiz.

Bu ulug‘vor niyatlarimizga erishish uchun bizga kafolatli va barqaror energiya resurslari suv bilan havodek zarur. Hisob-kitoblarimizga ko‘ra, kelgusi olti yilda mamlakatimizda elektr energiyasiga bo‘lgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 milliard kilovatt-soatga o‘sishi kutilmoqda. Buni, birinchi galda, qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplaymiz.

**Ikkinchidan**, biz global muammoga aylangan iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tinimsiz izlanyapmiz. Xalqaro sammitlarda muhim taklif va tashabbuslarni faol ilgari suryapmiz. Yaqinda Dubayda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi doirasida dunyo mamlakatlari “yashil” generatsiyani uch barobar oshirishga kelishib oldi.

O‘zbekiston ushbu tashabbusni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi va 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiradi.

**Uchinchidan**, mamlakatimizda “yashil” energetika bo‘yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjud. Yaratganning o‘zi bergan bu buyuk imkoniyatdan unumli foydalanib, uni xalqimiz manfaatlariga yo‘naltirishimiz zarur.

Sohani rag‘batlantirish maqsadida quyosh panellari o‘rnatishga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo‘yicha “Quyoshli xonadon” tizimini yo‘lga qo‘ydik. Shu yilning o‘zida yurtimizda 50 ming xonadon va tadbirkorlar tomonidan quyosh panellari o‘rnatildi. Mamlakatimizda 7 milliondan ortiq uy-joylar borligini hisobga olsak, bu investorlar uchun katta bozor yaratishini alohida qayd etmoqchiman.

**To‘rtinchidan**, hozirgi kunda global miqyosda “yashil” energiyadan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga alohida ustunlik berilmoqda. “Yashil energiya” sertifikati keng joriy qilinmoqda.

O‘zbekiston kelgusida aniq reja va qat’iy sa’y-harakatlar orqali “yashil” energiyani Osiyo va Yevropa mamlakatlari bozoriga ham yetkazib berish bo‘yicha dastlabki qadamlarni tashlayapti.

**Beshinchidan**, ushbu soha sanoatning boshqa tarmoqlari va servisni rivojlantirishga juda katta ijobiy turtki beradi. Bugungi loyihalar doirasida 100 million dollarlik elektr jihozlari va qurilish materiallari mahalliy korxonalar tomonidan yetkazib berilgani ham bu fikrimizning yaqqol tasdig‘idir.

Hozirgi vaqtda yurtimizda to‘rtta korxona quyosh panellari, yana ikkita korxona metall konstruksiyalar ishlab chiqarishni boshladi. “Yashil” energiya sohasidagi ellikka yaqin loyihalar esa qo‘shimcha 500 million dollarlik kabel bozorini yaratmoqda.

Biz xorijiy hamkorlarimizni butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishda mahalliy korxonalar bilan yaqin kooperatsiya aloqalarini yanada kuchaytirishga chaqiramiz.

Hurmatli do‘stlar!

Biz bugun amalga oshirayotgan ulkan ishlar tarmoqda boshlagan katta islohotlarimizning yana bir yaqqol amaliy natijasidir. Bu chora-tadbirlarni izchil davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tib boramiz. Xususan, bu yo‘lda yaqinda energetika bozori regulyatorini tashkil etish bo‘yicha muhim qarorni qabul qildik.

Hozir yurtimizda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari ustida jadal ishlayapmiz. Shu bilan birga, yangi generatsiya quvvatlarini yetkazish uchun infratuzilmani yanada yaxshilashga alohida urg‘u beryapmiz.

Kelgusi besh yilda jami 70 ming kilometr past kuchlanishli elektr tarmoqlari, 22 ming dona transformator, 100 dan ortiq podstansiyalar to‘liq yangilanadi. Shuningdek, 10 ming kilometr yuqori kuchlanishli yangi magistral tarmoqlar barpo etiladi.

Hech shubhasiz, sizlar bilan kelajakda yangi tashabbuslarni aniq loyihalarga aylantirish yo‘lidagi sermahsul hamkorligimizni yanada kengaytirib boramiz. Biz uchun ustuvor bo‘lgan bu kabi loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga barcha sharoit va zarur imtiyozlarni yaratib beramiz.

Fursatdan foydalanib, barchangizni kirib kelayotgan 2024-yil bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Sizlarga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat va olib borayotgan sharafli ishlaringizda ulkan omadlar tilayman.

Yangi yilimiz ham mana shunday quvonchli va fayzli lahzalarga boy bo‘lsin!

E’tiboringiz uchun rahmat!

O‘zbekiston Respublikasining

QONUNI

## O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 5-sentabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2023-yil 25-noyabrda ma’qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etish, shaharsozlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, sport-ta’lim tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida, shuningdek qurilish sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibi joriy etilganligidan kelib chiqqan holda mazkur sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini qaytadan ko‘rib chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur Qonun bilan “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik subyektlariga besh nafargacha doimiy xodimni ular bilan mehnat shartnomasini tuzgan holda yollash huquqini, shuningdek bir oilaviy korxona ishtirokchisiga bir vaqtning o‘zida boshqa oilaviy korxona ishtirokchisi bo‘lish huquqini beruvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga davlat hamda nodavlat sport-ta’lim tashkilotlari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun import qilinadigan maxsus sport kiyim-boshlari, poyabzal, sport anjomlari, jihozlari va uskunalarining ellik foizi uchun bojxona bojini to‘lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar berilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining shaharsozlik faoliyati obyektlarini qurish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish bo‘yicha vakolatlari bekor qilinishini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Ushbu Qonun arxitektura va qurilish sohasidagi ortiqcha byurokratik tartib-taomillarni bartaraf etishga, oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga, shuningdek sport-ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashga xizmat qiladi.

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-aprelda qabul qilingan **“Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”**gi O‘RQ–327-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012-yil, № 4, 111-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2015-yil, № 8, 312-modda; 2016-yil, № 12, 385-modda; 2019-yil, № 3, 166-modda; 2020-yil, № 1, 2-modda, № 7, 449-modda, № 11, 652-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

**(Davomi 2-betda).**

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2023-yil 28-dekabr

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

# O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

1) **3-moddaning beshinchi qismidagi** “uch nafargacha” degan so‘zlar “besh nafargacha” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) **5-moddaning**:

**birinchi qismidagi** “Oila boshlig‘i, uning xotini (eri)” degan so‘zlar “Er, xotin, ularning” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

**uchinchi qismi** chiqarib tashlansin.

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvarda qabul qilingan O‘RQ–400-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, 1-songa ilova; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 7, 433-modda, № 10, 670-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda, № 9, 589-modda, № 10, 671-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 969-modda; 2022-yil, № 2, 75-modda, № 7, 666-modda, № 12, 1190-modda) **297-moddasining ikkinchi qismi** quyidagi mazmundagi **15-band** bilan to‘ldirilsin:

“15) O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi, olimpiya hamda paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiyalar (assotsiatsiyalar) takliflari asosida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan shakllantiriladigan hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha davlat hamda nodavlat sport-ta’lim tashkilotlari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun xorijdan import qilinadigan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan maxsus sport kiyim-boshlari (ekipirovkalari), poyabzal, sport anjomlari, jihozlari va uskunalari uchun belgilangan bojxona boji stavkasining ellik foiziga”.

**3-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-fevralda qabul qilingan O‘RQ–676-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 2, 145-modda; 2022-yil, № 6, 570-modda, № 11, 1061-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) **21-modda birinchi qismining**:

**beshinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin;

**oltinchi – o‘n oltinchi xatboshilari** tegishincha **beshinchi – o‘n beshinchi xatboshilar** deb hisoblansin;

2) **22-modda birinchi qismining**:

**to‘qqizinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin;

**o‘ninchi – o‘n ikkinchi xatboshilari** tegishincha **to‘qqizinchi – o‘n birinchi xatboshilar** deb hisoblansin.

**4-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin;

ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

**5-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 27-dekabr
№ O‘RQ—890

---

O‘zLiDeP:

# FAOLIYAT NATIJALARI VA SAMARADORLIK

*Yil yakunlanishiga sanoqli kunlar qoldi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ayni paytda qo‘mitalar, siyosiy partiyalar fraksiyalari yil davomida bajarilgan ishlarni sarhisob qilgan holda kelgusidagi rejalarini ham belgilab olmoqda.*

## Sarhisob

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan o‘tkazilgan brifingda fraksiyaning 2023-yildagi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillariga ma’lumot berildi.

Ta’kidlanganidek, fraksiya tomonidan o‘tgan davrda partiya elektorati manfaatlarini himoyalash, saylovoldi dasturida ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslarni amalga oshirish, ishbilarmonlarning huquqlarini ta’minlash hamda tadbirkorlik sohasini tartibga soluvchi ormative-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar qilingan.

Hisobot davrida fraksiya a’zolari tomonidan 2 ta qonun loyihasi ishlab chiqilib, qonunchilik tashabbusi huquqi asosida Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritilgan. Shuningdek, boshqa fraksiyalar a’zolari bilan birgalikda 7 ta qonun loyihasi bo‘yicha tashabbus ko‘rsatdi. O‘tgan davrda fraksiya tomonidan Qonunchilik palatasida ko‘rilayotgan muhim qonun loyihalari joylarda keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilindi, qonunlarni takomillashtirishda saylovchilarning taklif va mulohazalari olindi.

Dolzarb masalalar yuzasidan mansabdor shaxslarning axborotini Qonunchilik palatasi majlislarida eshitish bo‘yicha tashabbus bilan chiqish, ular faoliyati ustidan ta’sirchan parlament hamda deputatlik nazoratini amalga oshirish borasida ham muayyan ishlar bajarilgan.

Xususan, fraksiya tashabbusi asosida qonunlarning, davlat dasturining ijrosi, hududlardagi o‘rganishlar davomida aniqlangan tizimli kamchilik va muammolarni hal etishga qaratilgan bitta “Parlament eshituvi” hamda to‘rtta “Hukumat soati” o‘tkazilgan.

O‘tgan davrda saylovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasidagi ishlarga ham jiddiy e’tibor qaratildi. O‘rganishlar davomida aniqlangan dolzarb masalalar yuzasidan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlariga jami 53 ta deputat so‘rovi yuborildi.




Shu bilan birga, joylardagi tizimli muammolar, qonun va qonunosti hujjatlarining ijro etilish holati yuzasidan tegishli mansabdor shaxslarning hisobotlari, davlat dasturi hamda Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosi fraksiya majlislarida doimiy tarzda eshitib borildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazish, muhim tarmoq va sohalarda mavjud muammolarni muhokama qilish hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli takliflarni ishlab chiqishga bag‘ishlangan qator tadbirlar o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, joylarda aholi bilan yuzma-yuz muloqotga, fuqarolarni o‘ylantirib kelayotgan tizimli muammolarni aniqlab, hal etish choralarini ko‘rish, murojaatlar bilan ishlash hamda qonun loyihalarini takomillashtirishda odamlarning takliflarini ko‘rib chiqish va inobatga olishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘tgan davrda hududlarga chiqqan holda 47 marotaba nazorat-tahlil tadbiri o‘tkazilib, ularda jamiyat hayoti uchun muhim bo‘lgan qonun loyihalarining ijro etilish holati, joylardagi mavjud tizimli muammolar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar samaradorligi atroflicha o‘rganib borildi.

Fraksiya faoliyatida aholi murojaatlari bilan ishlashga ham jiddiy yondashilgan. Jumladan, o‘tgan vaqt davomida fuqarolardan kelgan jami 2286 ta murojaatdan bugungi kunga qadar 1711 tasi ijobiy hal etilgan bo‘lsa, 434 ta shikoyat bo‘yicha fuqarolarga huquqiy maslahatlar berilgan. Murojaatlarning 53 tasi ayni paytda fraksiya a’zolari tomonidan ko‘rib chiqilmoqda.

Deputatlarning saylov okruglaridagi uchrashuvlari davomida esa aholi tomonidan jami 5 301 ta murojaat tushgan bo‘lib, shundan 2 618 tasi joyida hal etilgan. Qolgan 2 683 tasini ko‘rib chiqish uchun tegishliligi bo‘yicha mutasaddi tashkilot va idoralarga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuborilgan.

Brifingda fraksiyaning qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil faoliyati hamda hududlarda o‘tkazilgan saylovchilar bilan yuzma-yuz muloqot jarayonlari ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda yoritib borilgani, xususan, o‘tgan davr mobaynida fraksiya faoliyati haqida OAVda jami 14 728 marotaba chiqish qilingani aytib o‘tildi.

Yakunda O‘zLiDeP fraksiyasining kelgusi rejalari haqida ham axborot berildi.

**“Xalq so‘zi”.**

---

Qo‘mita eshituvi

# MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI ISHLAR TAHLILI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Madaniyat vazirligining “Mamlakatimizda milliy madaniyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning holati to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.*

Eshituvda “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingani soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lgani, unda madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgani alohida ta’kidlandi.

Yig‘ilishda deputatlar sohada olib borilayotgan ishlarni e’tirof etish barobarida mamlakatimiz Prezidenti raisligida shu yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi hamda unda belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlashda vazirlik oldida turgan masalalarga e’tibor qaratdilar.

Qo‘mita a’zolari so‘nggi yillarda mamlakatimiz ma’naviy hayotida, ijod sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi hamda bu boradagi ustuvor vazifalarga to‘xtalib o‘tdi. O‘z navbatida, Prezidentimiz nutqida ilgari surilgan tashabbuslar va soha rivojiga qaratilgan aniq rejalar ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda ma’naviy hayotimizda yangi islohotlar davri boshlangani va bunda vazirlik oldida turgan dolzarb vazifalar, ularning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashda Madaniyat vazirligi munosib hissa qo‘shishi kerakligi qayd etildi.

Shuningdek, madaniyat sohasini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarixiy va madaniy merosning but saqlanishini ta’minlash, aholining madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish va madaniy xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar tahlil qilindi. Madaniyat vazirligi tomonidan bu borada ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, qilinayotgan amaliy ishlar atroflicha muhokama etildi.

Yig‘ilishda fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, madaniyat organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari hamda Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda belgilab berilgan topshiriqlardan kelib chiqib, vazirlik o‘z oldiga aniq vazifalarni belgilab olganligi aytildi.

Shuningdek qo‘mita a’zolari tomonidan madaniy faoliyat sohasini tartibga soluvchi qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurligiga, sohadagi huquqni qo‘llash amaliyotida ayrim kamchiliklarni bartaraf etish lozimligiga e’tibor qaratildi.

Madaniyat vazirligi mas’ullari tomonidan deputatlar savollariga javoblar berildi.

Eshituvda ko‘tarilgan masalalar yuzasidan qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

---

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

# NORMA IJODKORLIGIDA QANDAY ISHLAR AMALGA OSHIRILMOQDA?

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan deputatlar O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri A. Toshqulovning Qonunchilik palatasi parlament so‘roviga javobini muhokama qildilar.*

Norma ijodkorligi mamlakatimizda tobora rivojlanib borayotgan huquqiy sohalardan biri bo‘lib, keyingi yillarda bu borada tizimli ishlar olib borilmoqda.

Joriy yilning 14-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan Adliya vaziriga yuborilgan parlament so‘rovida ham norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan bog‘liq masalalar ko‘tarilgandi.

Qayd etilganidek, o‘tgan davrda Qonunchilik palatasining tegishli qo‘mitasi tomonidan norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan qator nazorat-tahlil tadbirlari o‘tkazildi. Sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganilib, hududlarda aholini o‘ylantirayotgan masalalar tahlil qilindi.

O‘rganishlar natijalari yuzasidan shakllantirilgan parlament so‘roviga berilgan javobda quyidagilar aniqlandi. 2023-yilning to‘qqiz oyi davomida Adliya vazirligiga 210 ta qonun loyihasi taqdim etilgan bo‘lib, shundan 186 tasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilgan, 24 tasi esa Vazirlar Mahkamasining Reglamentiga muvofiq holda taqdim etilmaganligi sababli huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmasdan qaytarilgan.

Huquqiy ekspertizadan o‘tkazilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining 135 tasiga rozilik imzosi qo‘yilgan, 51 tasi imzolanmasdan e’tirozlar bilan qaytarilgan.

2023-yilning 9 oyi davomida Qishloq xo‘jaligi vazirligining 49 foiz, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining — 45, Raqamli texnologiyalar vazirligining — 45, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 42 foiz loyihalari qonunchilik hujjatlari va yuridik-texnika qoidalariga zid ekanligi, korrupsiyaviy omillar mavjudligi va boshqa e’tirozlar bilan qaytarilgan.

Qonunchilik hujjatlari va yuridik-texnika qoidalariga zid hamda korrupsiyaviy omillar mavjud bo‘lgan loyihalar kiritilganligi sababli Madaniyat va Raqamli texnologiyalar vazirliklariga taqdimnomalar kiritilgan.

Bundan tashqari, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan qonunchilik hujjatlariga o‘tkazish, o‘xshash munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarni unifikatsiyalash va “tartibga solish gilotinasi” usulini qo‘llagan holda amalda o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotgan hujjatlarni bekor qilish bo‘yicha so‘nggi yillarda tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, 2021-2022-yillar hamda 2023-yilning 9 oyi davomida 802 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat o‘z kuchini yo‘qotgan, deb topilgan.

Parlament so‘roviga kelgan javobda keltirilganidek, normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi amaliyotini muvofiqlashtirish borasida ham qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2023-yilning 9 oyi davomida 1 521 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilganda ularning 228 tasida 350 ta korrupsiyaviy omil aniqlangan hamda loyiha ishlab chiquvchilariga ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli takliflar berilgan.

Deputatlar taqdim qilingan ma’lumotlarni tahlil etar ekan, huquqbuzarliklarga shart-sharoit yaratuvchi, jismoniy va yuridik shaxslar uchun ortiqcha ma’muriy hamda boshqa cheklovlarni belgilovchi qoidalar va normalarni bartaraf qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilishi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq hamda erkinliklarining ta’minlanishiga yo‘l ochishini ta’kidlashdi.

Shuningdek, deputatlar kelgusida qonunchilik hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha barcha tartib-taomilning yagona qonun hujjatida jamlanishi bo‘yicha tegishli ishlarni jadallashtirish kerakligini, bu esa nafaqat huquqiy ekspertiza jarayonlaridagi turli yondashuvlar hamda qarama-qarshiliklarning oldini olishga, balki qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifati oshishiga ham asos bo‘lishini ta’kidladilar.

Majlisda parlament so‘roviga javob ma’lumot uchun qabul qilindi.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.**

---

*Mamlakatni, jamiyatni, oilani, umuman, insonni halokat va falokatga yetaklaydigan illatlardan biri, bu — beparvolik va loqaydlik.*

*Tez o‘zgarib borayotgan shiddatli zamonda — axborot asrida yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalardan g‘aflatda qolmaslik, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi, ogohlik tuyg‘usi bilan yashash jahonning turli hududlarida bosh ko‘tarayotgan xavfli baloyu ofatlardan uzoqroq bo‘lishimizga, ularga qarshi choralar ko‘rishimizga imkoniyat yaratadi. Zotan, dunyodagi hozirgi murakkab vaziyat, turli ziddiyat va qurolli nizolar mamlakatimiz xavfsizligi, tinchligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda.*

## Mulohaza

# ENG BUYUK INSONIY BURCH

Faylasuflar “Insoniyat o‘tmishga qarab turib kelajak sari qadam tashlaydi”, degan hikmatni bot-bot takrorlashadi. Haqiqatan ham, bashariyat uchun tarixning saboqlari, xulosalari muhim.

Dunyo o‘ttiz yil ichida ikkita jahon urushini boshidan o‘tkazdi. So‘nggi urushda ellik million odamning umri xazon bo‘ldi. Urush keltirgan jafolar, azob-uqubatlar, hijron va ayriliqlar, jarohatlar, ochlik va yo‘qchiliklar tufayli yuz bergan judoliklarni kim hisoblab chiqibdi, deysiz. Aslida kulfatni, baxtsizlikni raqamlarda ifodalab bo‘ladimi?!

Xalqimizda “Bir kun janjal chiqqan uydan qirq kun baraka ko‘tariladi” degan naql bor. Bunday “janjal”lar mintaqa miqyosida, qit’a darajasida, butun Yer yuzida yuzaga keltiradigan parokandalikni, inqirozni, baxtsizliklarni tasavvur etib ko‘ring-a! Shu ma’noda, har qanday qirg‘inbarot urush aslida insoniyatni tamaddundan ancha orqaga irg‘itib tashlaydigan, hech qanday vaj-karson bilan oqlab bo‘lmaydigan qonli voqelikdir.

Urushda g‘oliblar bo‘lmaydi, uning alangasiga vaqtida suv sepilmasa, ertami-kechmi, hammani komiga tortib ketadi...

Shu kunlarda G‘azo sektorida yuz berayotgan qurolli to‘qnashuvlar dunyoni tashvishga solib qo‘ydi. Urush oqibatida ayollar va bolalar qurbon bo‘lmoqda, odamlar boshpanasidan ayrilmoqda, o‘z uylarini tashlab ketmoqda. Ikki oy ichida 16 ming falastinlikning yostig‘i quridi. Ularning aksariyati yosh bolalar va go‘daklar ekani qalblarni larzaga keltiradi.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yaqin Sharq mintaqasida keskinlashayotgan voqealarga Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi hamda Toshkentda o‘tkazilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining navbatdagi yig‘ilishidagi nutqida O‘zbekistonning pozitsiyasini ochiq bayon etdi.

Davlatimiz rahbari Falastin va Isroil muammosiga to‘xtalar ekan, har ikki tomonni zudlik bilan gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga, jangovar harakatlarni to‘xtatib, nizoni tinch yo‘l bilan hal etishga chaqirdi. Muammoning yagona va eng adolatli yechimi — nizoni “ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili asosida hal etish ekani aytildi.

Chindan ham, zo‘ravonlik yanada avj olaversa, bu xalqaro vaziyatning keng miqyosda izdan chiqishiga, qurolli to‘qnashuvlarga yangi kuchlar tortilishiga, bu esa Yaqin Sharq mintaqasi bilan cheklanmay, uzoq o‘lkalarga ham tarqalib ketadigan, oqibatini bashorat qilib bo‘lmaydigan fojialarga olib kelishi mumkin.

Davlatimiz rahbari Falastin va Isroil tomonidan qurbon bo‘lgan insonlarning oilalariga chin dildan ta’ziya va hamdardlik izhor etar ekan, G‘azo sektori aholisiga baholi qudrat yordam ko‘rsatish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yaqin Sharq agentligiga 1 million 500 ming dollar ajratishga qaror qilganini bildirdi. Bu ko‘p millatli va bag‘rikeng O‘zbekiston xalqi ko‘nglidagi gap bo‘ldi.

Aslini olganda biz yashayotgan mintaqa xalqlari dunyoga doim tinchlikni sog‘inuvchi o‘lka sifatida tanilib kelgan. Xalqimizning bag‘rikengligi va mehmondo‘stligi barchaga yaxshi ma’lum. O‘zbek xalqi Ikkinchi jahon urushi yillarida ham og‘ir sharoitlarda yurtimizga ko‘chirilgan turli millat vakillariga hech ikkilanmasdan quchog‘ini ochgan, topgan nonini o‘rtada baham ko‘rgan. Biz turli millat va konfessiyalar vakillarining o‘zaro tinch-totuv hayot kechirishi tarafdorimiz. O‘z navbatida, jahon hamjamiyatini ham bu masalaga bee’tibor bo‘lmaslikka, har qanday muammoni faqat tinchlik yo‘li bilan hal qilishga chaqirganmiz va shunday bo‘lib qoladi ham. Bu prinsip yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida ham faol pozitsiya kasb etmoqda. Buni butun dunyoda katta tashvish va xavotir uyg‘otayotgan masalalarga tinchlik yo‘li bilan yechim topishga doir munosabatlarimizda ham ko‘rishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbarining Afg‘oniston borasidagi mulohazalari kishini yanada sergaklikka undashi bilan qimmatli. Va aynan shu mamlakat misolida urush, zo‘ravonlik hech bir mamlakatga ezgulik olib kelmasligini, aksincha, yovuzlik faqat yovuzlik yaratishini yana bir bor chuqur angladik.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, afg‘on ayollarining 85 foizi, erkaklarning esa 51 foizi savodsiz; qishloq joylarda, hatto 8 — 10 yoshli qizchalar ham turmushga uzatilmoqda; 100 ming ko‘zi yorigan ayoldan 1600 nafari vafot etmoqda; ayollar o‘rtacha 44-yil umr ko‘radi; 40-yildan ziyod vaqt mobaynida davom etgan urush tufayli kamida 1,5 million ayol beva qolgan, ularning o‘rtacha yoshi — 35...

Shukrki, biz dunyodagi eng tinch, osoyishta va inson qadr-qimmati yuksak baholanadigan mamlakatda yashayapmiz. Bu yurtning odamlari baxt nima ekanini juda yaxshi biladi. Buguni, ertasi va undan keyingi hayoti haqida bemalol orzular qiladi, katta rejalar tuzadi, farzandlarining kamolini ko‘zlab ulug‘vor ishlarga qo‘l uradi. Eng muhimi, bularni mutlaqo tabiiy jarayon sifatida qabul qiladi. Biroq afsuski, dunyoning hamma davlatlari haqida ham bunday yorug‘ fikrlarni bildirolmaymiz. Masalan, Suriya haqida... Bu ko‘hna zamindagi tartibsizliklar dastlab shunchaki norozilik namoyishi sifatida boshlangan edi. Lekin tez fursatda u keng miqyosli fuqarolar urushiga aylandi. Natijada qadimiy Shom diyoridagi boy madaniy merosning katta qismi vayron qilindi. Mamlakatdagi UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kirgan yodgorliklarning barchasi katta talafot ko‘rdi. Eng yomoni, urush natijasida 400 mingdan ziyod odamlar halok bo‘ldi. UNICEFning qayd etishicha, fuqarolar urushi tufayli deyarli 12 ming bola o‘lgan yoki jarohat olgan. Afsuski, shuncha yo‘qotishlarga qaramay urush olovi hamon pasaygani yo‘q. Bir paytlar ilm-fan yuksak taraqqiy etgan, aytish mumkinki, sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lgan mamlakat bugun tamoman vayronaga aylandi. Minglab suriyaliklar o‘z ona diyorini tashlab, o‘zga yurtlarda xoru zor, sarson-sargardon...

Ana shu vayronaga aylangan yurtdan baxt va boylik axtarayotgan insonlar ham yo‘q emas. Bunday odamlar qatorida vatandoshlarimiz ham borligi taassufli. O‘zbekiston davlati va xalqining saxovati, adashganni to‘g‘ri yo‘lga qaytarishdek insonparvarlik qadriyati tufayli ularga tinchlik, farovon hayot, o‘z yurtida qadr topishdek imkoniyat qayta nasib qildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Mehr” operatsiyalari natijasida hayot yo‘lida adashgan, nochorlik va nadomatlardan sillasi qurigan bir guruh ayollar va bolalar yurtga qaytarildi. O‘zbekiston o‘z fuqarolarining huquq va manfaatlarini, ular qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, himoya qilishga qodirligiga xalqaro hamjamiyat yana bir bor guvoh bo‘ldi.

Aytmoqchimizki, qayerda tinchlik va osoyishtalik hukm sursa, o‘sha joyda taraqqiyot bo‘ladi. Bizning erishayotgan yutuqlarimiz zamirida ham ana shu tinchlik-osoyishtalik yotadi. Agar istiqlolning o‘tgan 32-yiliga nazar tashlasak, poytaxtimiz, viloyatlar markazlari, shahar va qishloqlarimiz, hatto eng chekka hududlarda ham katta o‘zgarishlar ro‘y berganiga guvoh bo‘lamiz. Yurtimizdagi xotirjamlik va barqarorlik tufayli xonadonlarda to‘yu tomoshalar, bayramu shodiyonalar bo‘lmoqda. Bu ne’matlarga chin ma’noda shukrona qilish va ularning qadriga yetish kerak.

Aslida dunyodagi beqarorliklarning kelib chiqishiga nazar solinsa, ularning asosiy sababi ma’naviyat va yoshlar masalalariga loqaydlik, beparvolik, bu borada tegishli ma’naviy-ma’rifiy ishlarning amalga oshirilmagani ekani oydinlashadi. Shuningdek, ota-ona, oila va jamiyat nazoratidan chetda qolgan, o‘z holiga tashlab qo‘yilgan yoshlar, ishsizlik, bekorchilikdan beziganlar yovuz kuchlar nayranglariga aldanib qoladi. Tashqi kuchlar mamlakatlardagi tayyor yetilib turgan og‘ir vaziyatga olov purkab, to‘polonlarni keltirib chiqaradi. Keyin nima sodir bo‘lishini esa dunyoda ro‘y berayotgan qonli voqealar ko‘rsatib turibdi.

Shunday kezlarda barqaror tinchlik qaror topgan yurtda yashayotganingizga, dorilamon kunlar shukuhidan bahramand bo‘layotganingizga shukronalar aytasiz. Har kuni ertalab farzandlaringiz ko‘zidagi quvonch, baxtli bolalik nashidalarini ko‘rib, tinchlik, xotirjamlik naqadar buyuk ne’mat ekanini yana bir bor his qilasiz. Uni asrab-avaylashga intilasiz.

Tinch va farovon hayotning qadriga yetib, osuda turmushimiz barqarorligini ta’minlashga har birimiz ogohligimiz, hushyorligimiz, jasoratimiz, vatanparvarligimiz, fidokorligimiz bilan hissa qo‘shmog‘imiz lozim. Zero, bu — eng buyuk insoniy burchimiz.

**Rashid RO‘ZIBOYEV,**
**Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor.**

Barhayot satrlar



Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston
Qahramoni,
xalq shoiri

## YANGI YIL MUNOJOTI

*Vaqtning chopqirligiga hayratim tugamasdir,*
*Yilning o‘tishi go‘yo chaqnagan chaqmoq misol.*
*Yil nadir, umr o‘zi aslida bir nafasdir,*
*Eshikdan kirib shu on darchadan chiqmoq misol.*

*Besh yuz yil yashar emish tog‘ ahli bir qabila,*
*Sabrni maslak bilib, qanoatni toat deb.*
*Uy tiklamas emishlar birgina sabab ila,*
*Shu ozgina umrga ranj chekmoq na hojat deb.*

*Bu-ku bir afsonadir, aslida ahli olam*
*Odamdek yashash istar shu besh kunlik dunyoda.*
*Jahondan umid uzmas umri o‘tib borsa ham,*
*Yoshi ulg‘aygan sari orzulari ziyoda.*

*Bolam deb nihol ekar, nabiram deb uy solar,*
*Mendan ham biror yodgor avlodimga qolsin, der.*
*Dil tubida umrbod yashar oydin xayollar,*
*Vatanim kamol topsin, millatim yuksalsin, der.*

*Insondek yashamoqning asli shudir ma’nosi,*
*Yurt sevgisi bizlarga yurakdagi qondandir,*
*Bu muqaddas tuyg‘uda ajdodlarning nidosi,*
*Hadis so‘zi — Vatanga muhabbat imondandir.*

*Imonimni butun qil, yurtimni nurafshon qil,*
*Pok, halol yo‘llaringga bizni yo‘lla, Ilohim.*
*Vatanim kemasini dolg‘alardan omon qil,*
*Bu poyonsiz ummonda O‘zing qo‘lla, Ilohim.*

*Yuraklarga mehr sol, adovatdan qil yiroq,*
*Bu kungi zahmatlarning oqibati qut bo‘lsin.*
*Erkka tashna elimning baxti bo‘lsin yarqiroq,*
*Osmoni yorug‘ bo‘lsin, nasibasi but bo‘lsin!..*

Islohot

*2009-yilda o‘zbek paxtasiga boykot e’lon qilingan edi va bu taqiq 2022-yilgacha davom etdi. Uning bekor qilinishi, eng avvalo, yurtimizda keyingi yillarda majburiy mehnatga barham berilgani, paxtani terib olishda bolalar kuchidan foydalanilmayotgani va umuman, inson qadr-qimmati, sha’ni qadrlanayotganidan dalolat va bu paxtamizni jahon bozoriga chiqarishga katta yo‘l ochdi, desak, ayni haqiqat.*



# PAXTA TO‘QIMACHILIGIDA MUSTAHKAM SANOAT ZANJIRI YARATILDI

Ko‘plab xorijiy kompaniyalar bilan 12-yil davomida uzilgan aloqalar 2022-yildan so‘ng qayta tiklanib, to‘qimachilik sanoatimizda yuksalishlar ro‘y bera boshladi. Yurtimizda yetishtirilgan paxta xomashyosining to‘liq o‘zimizda qayta ishlanayotgani, ishlab chiqarish zanjiri yaratilayotgani fikrimizga aniq misol bo‘la oladi.

Bugungi kunda xorijga raqobatbardosh tayyor mahsulotlar eksport qilish darajasi ham muttasil ortib borayotir. Klaster usulida ishlayotgan “Uztex group” kompaniyasida paxta yetishtirishdan to uni qayta ishlab, tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan jarayon muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Kompaniya korxonalarida 2023-yil muvaffaqiyatli yakunlanib, yangi yilga yangi rejalar bilan qadam qo‘yilmoqda.

Ahamiyatli tomoni shundaki, O‘zbekiston paxtasiga e’lon qilingan global boykotning olib tashlanishi kompaniya uchun juda qo‘l keldi. Eksport uchun yangi bozor va yuqori daromadli biznes imkoniyati yaratildi. Yakuniga yetayotgan 2023-yil davomida kompaniya tizimidagi korxonalarga umumiy qiymati 115 mlrd. so‘m, qariyb 9 mln. 600 ming dollarga teng investitsiya kiritildi. Turkiya, Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning zamonaviy uskunalari bilan jihozlangan kompaniya bir qator xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritdi. Natijada eksport geografiyasi yanada kengaydi.

“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi ko‘magida O‘zbekistondagi 10 dan ortiq to‘qimachilik kompaniyalari xalqaro “WRAP” (Worldwide Responsible Accredited Production) standarti sertifikatiga ega bo‘ldi. “Uztex group” kompaniyasi nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda ushbu standartni olgan birinchi korxona hisoblanadi. 25-dekabr kuni kompaniyada sertifikatni rasman topshirish marosimi o‘tkazildi.

Shuni alohida e’tirof etish joizki, “WRAP” sertifikati ijtimoiy standartlarning eng murakkablaridan biri bo‘lib, “Uztex group” kompaniyasidagi ishlab chiqarish AQSHga mahsulot eksport qilish uchun zarur bo‘lgan barcha ijtimoiy me’yor va qoidalarga muvofiqligini tasdiqlaydi. Ushbu qadam O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati e’tibor qaratayotgan sifat va axloqning yuqori standartlarini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, bu AQSH bozoriga kirish uchun kalit qo‘limizda ekanini anglatadi.

— Dunyoda yetakchi, vertikal integrallashtirilgan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi o‘nta korxonani birlashtirgan kompaniyamizda 10 ming nafardan ziyod xodimlar mehnat qilmoqda, — deydi sotuv direktori o‘rinbosari Sanjar Hamdamov. — Bizda ishlab chiqarilgan har bir mahsulot yuqori sifatli kalava ipdan tayyorlangani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun tabiiy va ekologik toza paxtadan tayyorlangan trikotaj matolar, momiq sochiqlar, paypoq hamda trikotaj kiyim-kechaklarga ichki va tashqi bozorda talab ortib bormoqda. Misol uchun, 2022-yilda 80 mln. dollar miqdorida mahsulot eksport qilgan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich joriy yilda 100 mln. dollardan ziyodni tashkil etdi. Mahsulotlarimizni, asosan, Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Germaniya, Turkiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Moldova, Belarus, Ozarbayjon, Qozog‘iston va boshqa bir qator davlatlarga chiqaryapmiz.

Olmaliq shahrida joylashgan kompaniya filialida tizimdagi korxonalar ehtiyojidan kelib chiqqan holda polipropilen qoplari tayyorlanadi. O‘tgan yillar mobaynida mazkur korxonada mahsulot turlarini ko‘paytirishga, yangi loyihalarni hayotga tatbiq etishga erishildi. Hozirgi kunda korxonada 180 nafar ishchi-xodim mehnat qilmoqda. Mahsulotlarni ichki bozorga, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonga yetkazib berish bo‘yicha hamkorlar bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Bu yil mazkur korxonada yana bir loyiha hayotga tatbiq qilindi. Umumiy qiymati 2 mln. dollarni tashkil etuvchi qadoqlash sexi o‘z faoliyatini boshladi. Xitoy va Yevropaning bir qator davlatlaridan keltirilgan zamonaviy dastgohlar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish barobarida, mahsulot turlarini o‘ntaga kengaytirdi. Buning natijasida 80 ta yangi ish o‘rni ochildi.

Tizimdagi korxonalar uchun malakali ishchilarni tayyorlash, mutaxassislarning zamonaviy texnologiyalarda ishlash ko‘nikmasini oshirishga katta e’tibor qaratilyapti. Chirchiq shahrida monomarkaz tashkil etish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda. 2023-yilda 1350 ta yangi ish o‘rni ochildi. Kompaniya 8 ta korxonani birlashtirgani va mahsulot turlari xilmaxilligi bois bu yerda monomarkaz ochishga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Agar u ishga tushsa, 20 dan ortiq kasb-hunarlarga bevosita korxonaning o‘zida kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Mamlakatimizda birinchilardan bo‘lib “Uztex group” kompaniyasi tizimidagi korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, onlayn va real vaqt rejimida barcha korxonalar boshqaruvini amalga oshiruvchi “Uztex PRO” innovatsion ishlab chiqarish platformasi joriy qilindi. Bu platforma shaffoflikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jarayon to‘liq nazoratga olinadi. Xarajatlar qisqarib, mahsulotlar sifati yanada yaxshilanadi.

Yangi — 2024-yilda yana bir istiqbolli loyiha hayotga tatbiq qilinadi. Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida butlovchi buyumlar ishlab chiqaruvchi korxona quriladi. Umumiy qiymati qariyb 2 mln. dollarni tashkil etuvchi bu bo‘lajak korxonada 120 ga yaqin yangi ish o‘rinlari ochilishi ko‘zda tutilgan.

Xullas, yiliga 7 ming tonna bo‘yalgan trikotaj mato, 2,5 ming tonna rotatsion bosib chiqarilgan mato, 20 million dona tayyor trikotaj, 18 ming tonna bo‘yalgan ip, 70 million juft paypoq, 12 million dona sochiq va 7 ming tonna bo‘yalgan paxta tolasi ishlab chiqarish quvvatiga ega mazkur kompaniyaga qarashli mamlakatimizning turli hududlarida joylashgan 10 ta korxonada bugungi kunda 10 ming nafardan ortiq ishchi-xodim mehnat qiladi. Mahsulotlar esa o‘ndan ortiq mamlakatlarga eksportga chiqarilmoqda.

Bu ulkan yutuqlar zamirida mamlakatimizda paxta-to‘qimachilik klasteri tizimining joriy etilgani va uning paxtachilik sohasini butunlay yangi o‘zanga burib yuborgani mujassam, desak, sira mubolag‘a bo‘lmaydi. “Uztex group” kompaniyasi misolida bu tizim o‘zini to‘la-to‘kis oqlagani yuqoridagi yutuqlar misolida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda paxta-to‘qimachilik klasteri shaklida ishlayotgan mazkur kompaniya tasarrufida 45 ming gektar paxta maydonida chigitni ekish, parvarishlash, hosilni yig‘ib olish, qayta ishlash, kalava ipga aylantirish, mato to‘qish, bo‘yash va eksport qilishdek sanoat zanjiri ishlab turibdi.

Qishloq xo‘jaligi qanchalik sanoatlashsa, davlatning iqtisodiy va eksport salohiyati shunchalik ortadi. O‘zbekistonda klaster tizimi o‘tgan qisqa vaqtda agrar sohani harakatlantiruvchi yetakchi kuchga aylantirdi. Natijada faqat xomashyo yetishtirib kelgan mamlakatda sanoat inqilobi ro‘y berib, bugungi kunda paxta yuz foiz o‘zimizda qayta ishlanmoqda. Buning samarasi o‘laroq ko‘plab yangi ish o‘rinlari ochildi. Eng muhimi esa xomashyo emas, tayyor mahsulot eksport qilinishi evaziga sohadan olinadigan daromad muttasil ko‘paydi. Binobarin, hayotiy islohotlar orqali yangi zamon sari dadil qadam tashlayotgan yangi O‘zbekistonning yangi — 2024-yildagi muvaffaqiyatlari yanada bardavom bo‘lishi aniq.

**Faxriddin BOZOROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# ZIYOLILAR BILAN UCHRASHUV TASHABBUSLARGA BOY BO‘LDI

*O‘tgan hafta Prezidentimiz raisligida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda yurtimiz ziyolilari ishtirokida ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat, san’at va ijod sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar borishi muhokama etilib, kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.*

Munosabat

Alohida ta’kidlanganidek, shiddat bilan o‘zgarayotgan hozirgi zamonda ma’naviy barqarorlik naqadar ahamiyatli ekanligi hamda ruhiy yuksalish, go‘zallikka intilish va taraqqiyotga ijodiy yondashuv har qanday iqtisodiy masalalardan ham muhimligi ta’kidlab o‘tildi. Shundan kelib chiqib, qator yangi g‘oya va tashabbuslar ilgari surildi. Lo‘nda qilib aytganda, ziyolilar bilan uchrashuv yangi tashabbuslarga boy bo‘ldi. Ularning har biri aholining madaniy tafakkurini kengaytirish, fidoyi va mehnatkash ijod sohasi xodimlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularni rozi qilishga qaratilganligi bilan yanada ahamiyatlidir.

Aytish joizki, davlatimiz rahbari uchrashuv davomida mutasaddilarga musiqa va san’at maktablari o‘qituvchilarini qo‘llab-quvvatlash hamda bu maktablar kommunal xarajatlarini budjetdan qoplash bo‘yicha topshiriq berdi. Bu, o‘z navbatida, ushbu maktablarning to‘laqonli faoliyat yuritishi, rivojlanishi va ko‘plab iste’dodli yoshlarni kashf etishga xizmat qiladi.

Madaniyat jamoasi uchun juda muhim va uzoq kutilgan yana bir yangilik — madaniyat hamda san’at, kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning oylik maoshlari 2024-yil 1-apreldan 20 foizga, 2025-yil 1-yanvardan esa yana 15 foizgacha bo‘lgan miqdorda oshirilishi e’lon qilindi. Bu xushxabar madaniyat sohasining jonkuyar xodimlari tomonidan katta quvonch bilan kutib olindi.

Uchrashuvda millat tarixini anglashda muhim ahamiyatga ega muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha yetti yillik dastur qabul qilinishi ta’kidlandi. Ayni chog‘da innovatsion texnologiyalar asosida tarix muzeyi va san’at muzeyining zamonaviy yangi binolari barpo etilishi, temuriylar tarixi va tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanishi hamda Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi kapital ta’mirlanishi aytildi.

Mamlakatimizda bugungi kunda faoliyat olib borayotgan 48 ta davlat muzeyi va ularning 73 ta filialida qariyb 2,5 million tarixiy ashyolar va kolleksiyalar mavjud. Qolaversa, 6 ta nodavlat muzey faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularda 25 mingga yaqin tarixiy ashyolar va kolleksiyalar jamlangan. Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan tarixiy ashyolar va kolleksiyalar soni 1,3 millionni tashkil etmoqda.

Mana shu bebaho va qadimiy osoriatiqalarni avaylab asrash va kelajak avlodga o‘z holicha yetkazish uchun muzeylar moddiy-texnika bazasi talabga javob berishi kerak.

Uchrashuvda teatrlar faoliyatiga ham alohida urg‘u berildi. Jumladan, idora va muassasalarda oyning bir kunini “Teatr kuni” deb e’lon qilish taklifi ilgari surildi. Xodimlarning teatrlarga borishini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqligi ham ta’kidlandi. Yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etilishi ma’lum qilindi.

Xulosa o‘rnida aytganda, ushbu uchrashuv madaniyat va san’at hamda ijod ahli uchun yangilik va tashabbuslarga boy tarixiy kun sifatida muhrlandi. Ishonamizki, bu har bir madaniyat xodimida o‘z sohasiga nisbatan mehrni yanada kuchaytirishiga, ulkan maqsadlarni oldiga qo‘yib, yangi marralar sari ilhomlantiradi. Zotan, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, madaniyat rivojlanmasa, jamiyat taraqqiy etmaydi.

**Dilorom TOSHMUHAMEDOVA,**
**Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.**

REKLAMA

GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI
QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI:

**Foydali qazilma konlari geologiyasi fakulteti**
1. Umumiy geologiya kafedrasi:
kafedra mudiri; o‘qituvchi – 1 nafar.
2. Foydali qazilma geologiyasi kafedrasi:
kafedra mudiri; dotsent – 1 nafar.
3. Geologiya-qidiruv ishlari texnikasi va texnologiyasi kafedrasi:
kafedra mudiri.
4. Mineralogiya, petrografiya va geokimyo kafedrasi:
kafedra mudiri.
5. Foydali qazilma konlarini izlashning geofizik usullari kafedrasi:
kafedra mudiri.
**Neft va gaz konlari geologiyasi fakulteti**
1. Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi:
professor – 1 nafar; dotsent – 1 nafar; katta o‘qituvchi – 1 nafar; o‘qituvchi – 1 nafar.
2. Ijtimoiy fanlar, sport ishlari va o‘zbek tili kafedrasi:
kafedra mudiri; katta o‘qituvchi – 1 nafar; assistent – 1 nafar.
3. Iqtisodiy geologiya kafedrasi:
professor – 1 nafar; katta o‘qituvchi – 1 nafar.
**Tanlovda qatnashadigan nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:**
1. Universitet rektori nomiga ariza;
2. Xodimlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa (ma’lumotnoma);
3. Oliy ma’lumoti to‘g‘risidagi diplomlar nusxasi;
4. Ilmiy unvon va ilmiy daraja to‘g‘risidagi diplomlar nusxasi;
5. Ilmiy ishlar ro‘yxati (so‘nggi 3-yil);
6. Malaka oshirganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi.

**Hujjatlar e’lon chop etilgan sanadan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.**

**Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Telefon: 71-209-10-75.**

Biz va jahon

# Qozog‘istonning Shimkent shahrida O‘zbek tili va madaniyati markazi ochildi

*Qozog‘istonning Shimkent shahridagi Jumabek Tashenov nomidagi universitet qoshida O‘zbek tili va madaniyati markazi ochildi.*

U mazkur universitet va Andijon davlat pedagogika instituti o‘rtasida tuzilgan Hamkorlik memorandumi asosida faoliyat boshladi.

Aytish kerakki, universitetda “O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari” dasturi asosida bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda.

Universitet tashkil topganining 25-yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida O‘zbek tili va madaniyati markazining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Unda Andijon davlat pedagogika instituti rektori Baxtiyor Rasulov boshchiligidagi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari vakillaridan iborat delegatsiya qatnashdi.

Qozog‘iston tomoni O‘zbek tili va madaniyati markazini tashkil etishda munosib hissa qo‘shgan Andijon davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rahbariyati hamda professor-o‘qituvchilariga minnatdorlik bildirdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar ushbu markazning ochilishi O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilgan ta’lim va madaniyat sohalaridagi o‘zaro munosabatlarni amaliy mazmun bilan boyitishini qayd etdilar.

Ta’kidlanganidek, markaz O‘zbekistonning milliy madaniyati, adabiyoti va urf-odatlarini keng targ‘ib qilish imkonini beradi.

**“Dunyo” AA.**
Shimkent

# GULISTON NOMIGA MOS MANZILGA AYLANDI

*Prezidentimizning tegishli topshirig‘iga asosan eng chekka va olis hududlardan tanlab olingan “qizil” toifadagi 70 ta mahallada “Obod xonadon – obod ko‘cha – obod mahalla” mezonlarini joriy etish belgilangan edi.*

Obodlik

Shunga asosan Qashqadaryo viloyatida ham to‘rtta mahalla tanlab olinib, ularda dastur asosida obodonlashtirish, qurilish-bunyodkorlik hamda aholining farovon turmush tarzini ta’minlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ulardan biri — Nishon tumanidagi Guliston mahallasi. Bu mahallada 1235 ta xonadon mavjud bo‘lib, 6 ming 358 nafar aholi istiqomat qiladi. Aslida, aholi bu joylarga bundan 50 — 60-yil avval, Qarshi cho‘li o‘zlashtirilishi munosabati bilan ko‘chib kelib, makon tutgan. Asosiy kommunikatsiya tarmoqlari ham o‘sha vaqtlarda bunyod etilgan. O‘tgan yillar davomida esa mahallada aholi soni bir necha marotaba oshdi, yangi-yangi ko‘chalar, guzarlar barpo qilindi. Natijada mavjud kommunikatsiya tarmoqlari talabga javob bermay qolgan, bu esa aholining haqli e’tiroziga sabab bo‘layotgan edi.

Dastur doirasida mahalla hududidagi 27 kilometr yo‘lga shag‘al, 1,5 kilometr yo‘lga asfalt yotqizildi. Aholi gavjum bo‘lgan Sohibkor ko‘chasida 500 metr uzunlikda piyodalar yo‘lagi barpo etilib, atrofiga esa tungi yoritqichlar o‘rnatildi. Shuningdek, ta’mirtalab holga kelib qolgan 250 ta simyog‘och mustahkam beton ustunlarga almashtirildi, ikkita transformator kapital rekonstruksiya qilinib, yana ikkita yangi transformator o‘rnatildi.

— Mahallamizda ijtimoiy soha obyektlaridan 1 ta maktab, 1 ta maktabgacha ta’lim muassasasi hamda 1 ta oilaviy shifokor punkti mavjud, — deydi “Guliston” MFY raisi Xo‘jamurod Normo‘minov. — Dastur doirasida har uchala obyektda keng ko‘lamli ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. Ayniqsa, tibbiyot muassasamiz juda ta’mirtalab holatga kelib qolgan edi. Ushbu oilaviy shifokor punkti mukammal rekonstruksiya qilinib, eng zamonaviy tibbiy texnologiyalar bilan ta’minlandi. Bundan tashqari, mahalla idorasi ham to‘liq ta’mirlanib, bu yerda “mahalla yettiligi”ning samarali faoliyat olib borishi uchun barcha shart-sharoit yaratildi.

Shu bilan birga, mahallada aholini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, yashil maydonlar barpo etish, qabristonlar, irrigatsiya tarmoqlari atrofini obodonlashtirish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Gulistonda bo‘y ko‘rsatgan ana shunday o‘zgarishlar, yuksalishlar odamlarning kayfiyatida, ruhiyatida ham o‘z aksini topmoqda. Shu ma’noda aytganda, “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” tamoyili yakuni bo‘yicha ishlar sarhisobi ham haqiqiy bayramga aylanib ketdi. Tantanali tadbirda Qashqadaryo viloyati hokimi Murotjon Azimov hamda mas’ul idora va tashkilotlar rahbarlari, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etib, mahallada amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi.

Taniqli san’at ustalari va estrada ijrochilari ishtirokidagi konsert dasturi, turli sport o‘yinlari mahalla ahliga bayramona shukuh ulashdi.

**Jahongir BOYMURODOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATB

**aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish (masofadan) to‘g‘risida XABARNOMA**

Hurmatli bank aksiyadorlari!

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB (Toshkent shahar, Shahrisabz ko‘chasi, 3-uy manzili bo‘yicha joylashgan, korporativ veb-sayt: www.sqb.uz, E-mail: info@sqb.uz) sizga 2024-yil 26-yanvar kuni Toshkent vaqti bilan soat 11:00 da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati http://evote.uz/. orqali bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi belgilanganini ma’lum qiladi.

**YIG‘ILISH KUN TARTIBI**

**1.** Bank Kengashi 2 nafar a’zosining vakolatini muddatidan avval tugatish.

**2.** Bank Kengashida vakant bo‘lgan o‘rinlarga yangi a’zolarni saylash.

Aksiyadorlarni navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining o‘tkazilishi haqida xabardor qilish uchun reyestrni shakllantirish sanasi: 2023-yil 29-dekabr.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar reyestri tuziladigan sana: 2024-yil 23-yanvar.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga oid hujjatlar bilan bankning www.sqb.uz korporativ veb-sayti orqali tanishish yoki info@sqb.uz elektron manzili orqali so‘rov yuborishingiz mumkin.

*Yig‘ilish qatnashchilarini ro‘yxatga olish internet orqali elektron ovoz berish xizmatidan (http://evote.uz/.) foydalangan holda 2024-yil 26-yanvar kuni Toshkent vaqti bilan soat 10:00 da boshlanib 11:00 da to‘xtatiladi.*

**Murojaat uchun telefonlar: 78-120-45-00 IP:13-30; 94-711-13-75.**

# MILLAT FIDOYILARI JASORATI HAR QACHONGIDAN MUHIM

*Bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifat masalasi har doimgidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Negaki,jahondagi globallashuv butun dunyo bo'ylab iqtisodiyot va jamiyatlarning tobora kuchayib borayotgan integratsiyasini yuzaga keltirib,insoniyat tarixidagi muqarrar hodisa sifatida dunyoning tovar va mahsulotlar,axborot,bilim va madaniy qadriyatlar almashinuvi natijasida yagona bir maydonga birlashmoqda. Bunday paytda millat va elatlar,xalqlar va mamlakatlar o'zining milliy o'zligini hamda o'ziga xos individualligini saqlab qolishi muhim hisoblanadi.*

## Aks sado

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida globallashuv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy tahdid masalasi ko'tarildi. "Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. ...Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur", deya ta'kidladi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi hamda Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirildi, ularni moddiy rag'batlantirish choralari ko'rildi. Shuningdek, respublikamizda Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi Prezident, hududlarda esa birinchi rahbarlar hududiy kengashlarning raisi hisoblanadi. Chunki ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat doimo ustuvor masaladir.

Davlat rahbari yig'ilish chog'ida aholining tafakkurini kengaytirish, ma'naviy saviyasini oshirish, milliy o'zligini yanada chuqurroq anglatish maqsadida ziyolilar tomonidan ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borish zarurligi xususida gapirib, 9 ta yo'nalishda muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Avvalo, ma'naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos vazifasini o'taydigan milliy g'oyani rivojlantirish bo'yicha alohida dasturiy hujjat qabul qilish masalasini ko'tardi.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra, davlatimiz, avvalo, dunyoviy davlat ekaniga alohida urg'u berildi. Darhaqiqat, mamlakatimiz dunyoga ochiq, jahonda e'tirof topgan fan, ta'lim, madaniyat va san'at borasidagi barcha standartlarni mustahkam egallab, yuqori natijalarni ko'rsatgan. Shuningdek, jahon bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy-gumanitar sohalarda keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Shunday ekan, xalqimiz bundan buyon ham o'zining tanlagan ezgu hamda ma'rifat yo'lidan borishi hammamiz uchun oliy maqsaddir.

Davlatimiz rahbari ma'rifat masalasini ko'tarar ekan, teatr san'atining rivojlanishini ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Shu bois endilikda mutasaddilar tomonidan teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqiladi. Unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish yo'lga qo'yiladi.

Aytish joizki, har bir mamlakatning intellektual saviyasi ijodkorlarga davlat tomonidan ijodiy buyurtma berish bilan belgilanadi. Zero, bu yo'l bilan mamlakatda adabiyot va dramaturgiya rivojlanadi. Yurtning intellektual darajasi yuksalgani sayin uning ma'naviy qadri oshib boradi.

Ma'naviyat masalasiga daxldor bo'lgan sohalarda muayyan kamchiliklar bor ekanini chuqur anglagan davlatimiz rahbari masalaning yechimiga aniq ko'rsatmalar berib, kelgusi yildan har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to'garak xonalari bo'lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo'lga qo'yilishini aytib o'tdi. Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo'yicha dastur qabul qilinib, bunga 100 milliard so'm yo'naltiriladi.

Darhaqiqat, badiiy havaskorlik jamoalarining hududlarda mavjud bo'lishi hamda faoliyat ko'rsatishi aholining madaniy saviyasi uchun zarur bo'g'in hisoblanadi. Zero, u yerda san'atga havasmand insonlar to'planib, musiqiy madaniy merosni o'rganish, uni targ'ib etish bo'yicha ulkan ishlar olib boriladi. Bunday jamoalar musiqiy merosning kelgusida yosh avlodga qolishida muhim vazifani bajaradi.

Davlatimiz rahbari yurtimizning milliy o'zligini asrash va yuksaltirish borasida to'xtalib, maqom hamda baxshichilik san'atini ilmiy asosda o'rganish va rivojlantirishni kuchaytirish muhimligini ta'kidlab o'tdi.

Ayni chog'da yosh avlodni ma'rifatli hamda ziyoli etib tarbiyalashda bolalar musiqa va san'at maktablarining o'rni muhim ekani alohida belgilandi. Shu maqsadda undagi pedagog va jo'rnavozlarning oylik maoshini bir necha martaga oshirib, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash borasida aniq ko'rsatmalar berdi.

Ayonki, pedagoglar va ayniqsa, jo'rnavozlar yosh avlodning ma'naviy-estetik tarbiyasini olib borishda muhim vazifani bajaradi. Jo'rnavozlar pedagogik jarayonda bevosita qatnashib, o'quvchining san'atkor bo'lib shakllanishi hamda konsert-ijrochilik faoliyatini yuritishida eng muhim hamrohdir. Binobarin, jo'rnavoz musiqachi o'quvchi bilan birgalikda musiqiy ijro repertuarini ro'yobga chiqaradi, u bilan birga sahnada ijro etadi va musiqani tom ma'noda anglash bilan bog'liq ijodiy jarayonlarda faol qatnashadi. Shu bois yig'ilishda bolalar musiqa va san'at maktablarining pedagog va jo'rnavozlarining qadr-qimmatini oshirish zarurligiga alohida urg'u berildi.

Prezident "o'zbek madaniy diplomatiyasi" degan tushunchani keltirar ekan, uning aniq parametrlarini yaratish, jahon bilan hamkorlik qilishda "o'zbek madaniy diplomatiyasi" aynan O'zbekiston davlatining imiji va qiyofasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lishini ta'kidladi. Buning uchun esa, madaniyat sohasida kreativ yondashuv zarurligini aytib o'tdi. Shu maqsadda, davlatimiz qonunchiligida muayyan qonuniy hujjat ishlab chiqish zarurati borligi ta'kidlandi.

Muxtasar aytganda, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishi asnosida yurtimizning ko'zga ko'ringan madaniyat va san'at arboblari anjumanidan maqsad — bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan davlatimizning qadr-qimmatini, milliy o'zligimizni asrlarga tatigulik darajada yuksaltirish, yoshlarimizning Vatanga bo'lgan sadoqatini mustahkamlash bo'ldi. Zero, bugungi globallashuv zamonida Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdid yuz berayotgan bir davrda millat fidoyilari, ziyolilar jasorat bilan maydonga chiqishi va millatimizning kelajagini saqlashi darkor.

**Oydin ABDULLAYEVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

## Bunyodkorlik

# ZARBDOR MAHALLASIDA BAYRAM SHUKUHI

*Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumani markazidan o'n besh chaqirim olisda joylashgan Zarbdor mahallasi ahli uchun yakunlanayotgan yil quvonchli keldi.*

*Gap shundaki,bu yerda "Obod mahalla — obod ko'cha — obod xonadon" mezonlari asosida amalga oshirilgan katta hajmdagi bunyodkorlik ishlari natijasida hudud butunlay o'zgacha qiyofa kasb etdi.*

Xususan, 6,5 kilometr yangi tarmoq tortilishi bilan mingdan ortiq xonadonlarning toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoji to'la qondirildi. Uchta yuqori quvvatli transformator qurilmasi o'rnatilishi energiya ta'minoti uzluksizligiga kafolat yaratgan bo'lsa, 1,5 kilometr yo'lga asfalt yotqizilib, ko'chalar ravon holatga keltirildi. Mahalla fuqarolar yig'ini esa yangi tiklangan zamonaviy binoga ko'chib o'tdi.

— Bu ishlarga hammasi bo'lib 2,8 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanibdi, — deydi mehnat faxriysi Ikromjon Abdusalomov. — Bu ozmuncha mablag' emas va qo'rg'onimiz chiroyini butunlay ochib yubordi, mahalladoshlarimiz turmushiga yangi mazmun bag'ishladi.

Zarbdordagi o'zgarishlarga hamohang aholining faolligi ham oshgan. Aksariyat xonadonlar egalari o'z hovlilarini o'zgarishlarga moslab qayta qurdi, hashar asosida ko'cha bo'ylab, shuningdek, xiyobonlar havas qilarli holatga keltirildi. Tadbirkor Nazokat Adhamova fuqarolar yig'ini sobiq binosini tasarrufiga olib, tikuvchilik sexiga aylantirdi va 20 nafar mahalladoshini doimiy ish bilan ta'minladi.

Ma'lumot uchun, Namangan viloyatida joriy yil boshidan buyon 5 ta mahalla yuqoridagi mezonlar asosida obod va ko'rkam holatga keltirilib, ularda 20 milliard so'mlikdan ortiq bunyodkorlik tadbirlari ro'yobga chiqarildi.

**Qudratilla NAJMIDDINOV**
**("Xalq so'zi").**

## Tuhfa

# PAYARIQLIKLAR UCHUN SOVG'A

*Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Payariq tumanida ham ijobiy o'zgarishlar davom etmoqda. Xususan,Yangi yil bayrami arafasida tumanda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining yangi binosi foydalanishga topshirildi. Zamonaviy jihozlangan ushbu markazda fuqarolar hamda xodimlar uchun barcha qulaylik yaratilgan.*

Endilikda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordamlarning 30 turi mazkur markazda ko'rsatiladi. Bunda nogironlikni belgilash, protez-ortopediya masalalari bilan ta'minlash, sanatoriylarga yuborish, psixologik yordam va ijtimoiy nafaqa tayinlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Yangi obyektning ochilishi munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi, tuman hokimligi va jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Shuningdek, tumandagi 40-maktabgacha ta'lim muassasasining 300 o'rinli yangi binosi ham bolajonlar va mahalla ahliga bayram sovg'asi sifatida foydalanishga topshirildi.

Aholining birdamligi hisobiga 2023-yil "Tashabbusli budjet" loyihasining 1-mavsumida navbatdagi g'olib tashabbuslar qatoridan joy olgan mazkur obyektning ochilishida tuman hokimligi, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mas'ullari hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar kelgusida ushbu maskan tarbiyalanuvchilari ham elu yurtga sidqidildan xizmat qiladigan o'g'il-qizlar bo'lib yetishishini tiladi.

**Abdulaziz YO'LDOSHEV**
**("Xalq so'zi").**

# Bola kitob bilan do'stlashsa...

*Buxoro shahridagi "Istiqlol" mahalla fuqarolar yig'ini hududida istiqomat qiluvchi Go'zal Rajabova bilan suhbatlashgan kishi qarshisida o'qimishli, bilimli,o'z dunyoqarashiga ega ayol turganini darhol payqaydi. Asl kasbi psixolog bo'lgan bu yurtdoshimizning chindan ham fikrlash doirasi keng. Buni bir jihatdan uning badiiy kitoblarni ko'p mutolaa qilgani bilan ham izohlash mumkin.*

## Mushohada

— Yaqinda "Kitobxon oila" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida qatnashib, faxrli birinchi o'rinni egalladik, — deydi u. — Bilasizmi, kitobga mehr, ilmu ma'rifatga chanqoqlik bizga otameros, desam, xato qilmayman. Oilada sakkiz farzand edik. Ota-onamiz qo'limizda kitob ko'rgan mahal bizni boshqa yumushlar bilan chalg'itmasdi. Yaxshi so'z aytib, rag'batlantirardi.

Barchamiz nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olib, hayotda o'z o'rnimizni topdik. Bunda oiladagi muhitning, kitob mutolaasining ahamiyati katta deb bilaman. Shaxsiy kutubxonamizda o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalari qalamiga mansub 500 tacha kitob mavjud. Uch nafar farzandim bor. Ularni ham kitob, gazeta, jurnal o'qishga qiziqtirib, kam bo'layotganimiz yo'q.



Go'zal opaning bu haqda alohida to'xtalishi bejiz emas. Uning qizi, shahardagi 32-umumta'lim maktabi o'quvchisi Malika Tohirova ham kitobga mehr qo'ygan. Bu qiz "Yosh kitobxon" tanlovining viloyat bosqichida 10 — 14 yosh toifasi bo'yicha qatnashib, g'oliblar qatoridan o'rin oldi. Tadbirning respublika bosqichida ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli ikkinchi o'rinni egalladi. Viloyat bolalar kutubxonasining faol a'zosi sanalgan Malika 50 million so'm miqdoridagi pul mablag'i bilan taqdirlandi.

— "Yosh kitobxon — 2022" respublika tanlovi yakuniga ko'ra, kutubxonamiz a'zosi, Buxoro shahridagi 30-umumta'lim maktabining bitiruvchi sinf o'quvchisi Muxlisa Nasimova birinchi o'rinni egallab, "Spark" avtomashinasi bilan taqdirlangan edi, — deydi viloyat bolalar kutubxonasi direktori Nargiza Nizomova. — Joriy yilda esa Malika Tohirova unga munosib izdosh ekanini ko'rsatdi. Biz shunday izlanuvchan, tirishqoq, kitob o'qishga ishtiyoqmand o'g'il-qizlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishdek ezgu ishga hissa qo'shayotganimizdan mamnunmiz.

Darhaqiqat, viloyatda Prezidentimizning 2017-yil 13-sentabrdagi kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilishga qaratilgan qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, o'quvchilar o'rtasida mutolaa madaniyatini yuksaltirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, maktabgacha va maktab ta'limi tizimi tasarrufidagi viloyat bolalar kutubxonasi mavjud 530 ta maktab kutubxonasi, 4 ta maxsus maktab-internati uchun uslubiy markaz vazifasini o'tayapti. Ayni damda kutubxonaning umumiy fondi 108 ming 509 nusxa. Jami kitobxonlar soni 23 ming 245 nafar. Kitobxon o'quvchilarning har biriga o'rtacha 5 donadan kitob to'g'ri kelmoqda. Joriy yilda kutubxona fondini boyitish maqsadida mahalliy budjet mablag'lari hisobidan 80 million so'm mablag' ajratildi.

— Maskanimizda zamonaviy kompyuterlar, bir necha skaner, printer, nusxa ko'chirish apparatlari mavjud bo'lib, internet tarmog'i orqali foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatilmoqda, — deydi kutubxona direktori o'rinbosari M. Akramova. — "Elektron kutubxona" tizimiga ulanganmiz. Hozirgi kunga qadar "Raqamli kutubxona" platformasiga joylangan adabiyotlar soni 90 ming 300 nusxaga yetdi. Bu umumiy kitob fondining 94 foizini tashkil etmoqda.

Kutubxonaning o'z sayti bor. Unda 22 ming 800 nafar foydalanuvchi, 25 ming 180 nomda elektron kitoblar mavjud. Shuningdek, jamoat joylarida QR-kodlar yordamida elektron kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlarni maxsus tablolarda joylashtirish va ularni mobil qurilmalarga yuklab olish va o'qish imkoniyatini yaratish, kutubxonada ommabop kitoblarni targ'ib qilish maqsadida mingdan ortiq badiiy elektron va audio kitoblarning QR-kodlari yaratildi.

O'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularning kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishda "Men g'olibman", "Kitob — tafakkur xazinasi", "Ta'lim — 2023" kabi loyihalar muhim o'rin tutmoqda. Viloyat miqyosida o'tkazilgan o'ttizdan ziyod tadbirlarda umumta'lim maktablarining 200 ming nafar o'quvchisi ishtirok etdi, 100 dan ortiq yosh ijodkorlarning ijodiy namunalari gazetalarda chop qilindi. Loyiha doirasida 13 ta tuman, shaharlar bo'ylab umumta'lim muassasalarida "Kitob bizni birlashtiradi" deb nomlangan yarmarkalar tashkil etildi.

Kitob yarmarkasida minglab o'quvchilar qamrab olindi, ota-onalar va ularning farzandlari tomonidan 700 million so'mlik 40 ming nusxaga yaqin kitoblar xarid qilindi, maktab kutubxonalari fondi ham boyitildi. Yozgi ta'til davridan ham unumli foydalanildi. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida oromgohlarda "Kitob oqshomi" festivali o'tkazildi. Bu kabi tadbirlar ko'plab yoshlarni kitob bilan oshno etdi, desak, adashmaymiz.

— Kitob bilan do'stlashgan kishidan hargiz yomonlik chiqmaydi, — deya mulohaza yuritadi buxorolik tarixchi olim Shodmon Hayitov. — Agar oila davrasida kitobxonlik an'anasi yo'lga qo'yilsa, bu xonadon bolalari es-hushli, aqlli, bilimli, zukko, oq bilan qoraning farqiga yetadigan bo'lib voyaga yetadi. Qayda bo'lishmasin, "Otangga rahmat!" degan so'zni eshitadi. Bunday farzandlardan o'sha oila sohiblari, qolaversa, mahalladagilar ham g'ururlanishsa arziydi. Afsuski, ayrim xonadonlarga kirsangiz, kitob javoni tugul birorta badiiy kitobni uchratmaysiz.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari tahliliga bag'ishlangan ko'plab maqolalar yozgan olim haq. Yaqinda voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik ahvoli o'rganilganida nojo'ya yo'llarga kirgan bolalar, loaqal bitta bo'lsa-da, badiiy asar o'qimagani ma'lum bo'ldi.

Binobarin, kitobxonlik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir mahalda ba'zi ota-onalarning loqaydligi kishini xavotirga soladi. Vaholanki, faylasuflardan biri aytganidek, kitobsiz uy jonsiz tanadir.

**Istam IBROHIMOV**
**("Xalq so'zi").**

REKLAMA

# "IBRAT FARZANDLARI" – TIL O'RGATISHDA KREATIV VA BEPUL LOYIHA

*"Til o'rganish xohishingiz tez so'nayotgan bo'lsa, boshqacharoq usul tanlang: kitob o'qiyotgan bo'lsangiz,uning audio formatiga o'ting,darslikni qo'yib,lug'atni qo'lga oling va hokazo". Vengriyalik professional tarjimon Kato Lombning maslahati "Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida berilayotgan imkoniyatlarga to'la mos keladi.*




Yigirmadan ortiq xorijiy tillarni onlayn tarzda bepul o'rgatib kelayotgan "Ibrat farzandlari" loyihasining ishga tushganiga 1-yil to'ldi. O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshirilgan loyihani "O'zsanoatqurilishbank" ATB moliyaviy qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Bugungi kunda darslardan foydalanuvchilar "YouTube" platformasida 430 ming nafardan ortgan. Sahifada e'lon qilingan darslar kuzatuvchilar tomonidan 20 million martadan ziyod ko'rilgan bo'lib, raqamlar soat sayin o'smoqda.

Loyiha doirasida ishga tushirilgan "Ibrat Academy" ilovasi orqali esa darslar video tarzida yetkazilishi bilan birga til o'rganuvchilarga o'z darajasini doimiy tekshirib borish, bilimini mustahkamlaydigan sinov mashqlarini bajarish hamda so'z boyligini interfaol usulda oshirish imkonini bermoqda.

— Prezidentimiz tashabbusi bilan buyuk ma'rifatparvar olim Is'hoqxon Ibrat nomini abadiylashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, — deydi loyiha rahbari Rustam Qoriyev. — "Ibrat farzandlari" loyihasini tatbiq etishda ham besh tilda bemalol so'zlasha olgan va jadid yoshlariga bepul tahsil bergan Ibrat bobomiz o'rnak qilib olindi. Buning uchun professional murabbiylar tomonidan 22 turdagi tizimli va alifbodan boshlangan darslar majmuasi ishlab chiqildi. Hozirda jamoatchilik fikr-mulohazalari hamda takliflari asosida ular yanada takomillashtirib borilmoqda.

Xususan, "Ibrat farzandlari" tarkibida "Ibrat Camp", "Ibrat master class", "Ibrat quiz" kabi loyihalar ham tashkil etildi. Ular yoshlarimizni yanada bilimli, zukko va muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Masalan, "Ibrat Camp" loyihasida xorijiy tillarni mukammal o'rgangan kuchli, bilimdon yoshlar bir nuqtada to'planib, dunyoda "TOP-100"ga kirgan universitetlarda o'qish imkoniyatini qo'lga kiritish "xaritasi"ga ega bo'lmoqda. "Ibrat master class" til o'rganuvchilarga ingliz tilida ravon so'zlashish, IELTS imtihonida yuqori ballni qo'lga kiritish, omma qarshisida nutq so'zlash sirlaridan saboq bermoqda. "Ibrat quiz" esa yoshlarning nafaqat bilimini oshirishga, balki ularning zukkoligi, intellektual topqirligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, loyiha doirasida ingliz tilida yoshlarning tanqidiy fikrlashini kuchaytirishga qaratilgan debatlar uyushtirilmoqda.

"Ibrat farzandlari" taqdim etayotgan o'quv majmualari, ayniqsa, chekka hududlarda istiqomat qilayotgan hamda moliyaviy imkoniyati cheklangan, lekin xorijiy tillarni o'rganishga ishtiyoqmand o'quvchilar uchun juda manfaatli bo'lmoqda.

Loyiha doirasida yo'lga qo'yilgan O'zbekistonda birinchi o'zbek tili grammatikasini onlayn o'rgatish tizimi esa xorijliklarga har tomonlama qo'l kelmoqda.

Foydalanuvchilar, shuningdek, til o'rganib, yuqori marralarga erishgan yoshlar, chet eldagi nufuzli universitetlarni tamomlagan faollar bilan suhbat qurib, katta tajriba orttirmoqda. Bu boradagi ishlar 24/7 rejimida tashkil qilingan. Buning uchun poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyidan alohida joy ajratilgan.

— Joriy yilning 18-noyabr kuni mazkur loyiha taqdimotida mingdan ortiq yoshlar hamda Fransiya, Ispaniya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Ozarbayjon, Hindiston kabi qator davlatlardan professorlar, til va madaniyat markazlari rahbarlarining bevosita ishtirok etgani ishimizga bo'lgan ishonch va qiziqishdan dalolatdir, — deydi Rustam Qoriyev.

Muxtasar aytganda, "Ibrat farzandlari" loyihasi nafaqat xorijiy tillarni o'rgatish, balki netvorking (networking) orqali dunyo ilmlarini zabt etishga yordam bermoqda.

**Bank Axborot xizmati.**

*Xizmatlar litsenziyalangan.*

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 472 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-8788

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 21.30 Topshirildi — 01.15 1 2 3 4 5 6